**IQRO JURNALI / 2023**
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

# MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI

**Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich**

Guliston davlat pedagogika institutining o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi globallashuv jarayonida migratsiya masalasi tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. migratsiya jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, ma’lum hudud, mamlakat, mintaqa ijtimoiy hayotiga o‘zining ijobiy, salbiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ta’sirini o‘tkazadi. Shu boisdan ham migratsiya jarayonini tushunish va uni tahlil qilish, tartibga solish, uni boshqarish masalalari alohida e’tibor talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv jarayoni, migratsiya masalasi, globalizatsiya va integrasion jarayonlar, ikkinchi vatan, urbanizatsiya, surish.

Bugungi dunyoda jadal globallashuv jarayoni davom etmoqda. Dunyo mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivoji va o‘zaro tengsizligi ham o‘sib bormoqda. Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, migratsiya jarayonlaridagi turli keng ko‘lamli islohotlarning barchasi inson va uning omili uchun xizmat qilmoqda. Mamlakatlar tomonlaridan yaqin qo‘shnichilik va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi qilinayotgan islohotlari boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro migratsiya jarayonlarini yanada tartibga solinishiga asos bo‘lmoqda.

Migratsiya lotincha, “migratio” ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman manolarini anglatadi, ya’ni aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishidir[1]. Tushunchaning qamrovi bir muncha keng bo‘lib, aholi migratsiyasi bilan birga hayvonlar migratsiyasi, elementlar migratsiyasi, energiya migratsiyasi kapital migratsiyasi kabi tarmoqlarni ham o‘rganib boradi. Shuning uchun, tushuncha faqat ijtimoiy bo‘lmay boshqa fan tarmoqlarini ham qamrab oladi. Maqolada aholi migratsiyasining falsafiy va madaniy tahlilini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bilgan holatda uning bugungi kun fani doirasida yoritishga harakat qilamiz.

Migratsiyani o‘rganishning asosiy kontseptual yondashuvlar zamonaviy fandagi sotsiologiya, iqtisodiyot, demografiya, ijtimoiy-psixologiya, huquq, madaniyat, ideologiya va etnologiya kabi sohalardagi tadqiqotlarda ochib berishga ko‘proq harakat qilinmoqda. Tadqiqotlar natijasida migratsiyani nafaqat shaxslarning harakatchanligi shakli sifatida baholash balki, ijtimoiy guruhlar va jamoalarning ko‘chishdan keyingi hayoti, tafakkuri va madaniyatidagi o‘zgarishlar, shu bilan birga mezbon jamiyatning ham ushbu jihatlariga ta’sirini tahlil qilish va ijtimoiy munosabatlarning dinamikasini kuzatib borish, uni tahlil qilish, natijalarni baholashga doir jarayonni o‘z ichiga qamrab olishini inobatga olinsa, sohaning ahamiyatini to‘la tushunib yetilishini ta’minlaydi. Migratsiya shaxslarning harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Hududlarning iqtisodiy rivojini hisobga olgan holda, mehnat uchun to‘lanuvchi ish haqining yuqoriligi, yangi ochilgan ish o‘rinlariga joylashish, ish bilan ta’minlanmagan aholining kadrlar taqchil hududlarga harakati, mehnat bozori o‘rtasidagi munosabatlar migratsiya munosabatlari va mehnat munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib turibdi. Bu iqtisodiy taraqqiyot aholining yaxshi yashash uchun talablari ortib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib globallashuvning qamrovini oshib borishiga olib kelmoqda, ya’ni bugungi insoniyatda bu talablar bilan birga vatan yoki hududiy tegishlilik kabi azaliy qadriyatlariga ham putur yetkazmoqda.

Migratsiyani keltirib chiqaruvchi yana bir sabablardan deb ko‘rsatish mumkinki, bu demografiya jarayoni hisoblanadi.

Zamonaviy global muammo sifatida ham insoniyat oldida turli yechimi qiyin savollarni qo‘yayotganligi bilan ham ushbu masala, migratsiyaning asosiy sabablaridan deyish mumkin. So‘nggi asrlarda insoniyat shu darajada tez o‘sib bordiki, “1804 yili dunyoda 1 milliardan sal ko‘proq aholi istiqomat qilar edi, 1927 yilga kelib esa bu raqam 2 milliardga etdi. Shundan keyin tug‘ilish sur’ati jadal ildamladi: 1959 yilda aholi soni 3 milliardga, 1974 yilda esa 4 milliardga yetib oldi. 1987 yilga kelib sayyoramiz o‘z bag‘riga 5 milliard, 1998 yilda esa 6 milliard odamni sig‘dirdi.” 2023 yilga kelib insoniyat 8 milliardlik marrani zabt etdi. Demak, demografiya taraqqiyotining bu bosqichida inson yashash manzillarini ham o‘zgartirishi va kengayib borishiga kuchli ehtiyoj sezmoqda va bu bilan birmuncha taraqqiy etgan hududlarga intishni ortishi va shu hududlardagi muammolarning ham ko‘payishini keltirib chiqarmoqda. Yana shuni qayd etish kerakki, bu jarayonda yer yuzi bo‘ylab odamlarning nomutanosib taqsimlanishini ham keltirib chiqarmoqda. Muammoni bartaraf etish uchun esa birmuncha taraqqiy topgan hududlarda turar joylarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan hukumatlarning tizimli xatolariga ham olib kelmoqda. Masalan qurilishlarning sifatiga e’tiborsizlik buning misoli bola oladi. Bu o‘z navbatida huquq ilmi nuqtai nazaridan ham, qonunchilik va huquqiy tartibga solishni talab qiladigan muhim muammolarni keltirib chiqaradi. Demak bundan faqat ilmiy yondashuvgina ijtimoiy muammolar yechimini topishga imkon beradi. Migratsiya jarayoni demografik, siyosiy-huquqiy, etnik-diniy va madaniy jihatlar o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

Migratsiyani ijtimoiy hodisa sifatida uchta ko‘rinishi mavjud: shaxsning yashash makonini o‘zgartirishi (harakatchanlik omili); shaxsning o‘z ijtimoiy maqomi va statusini yaxshilash niyati (ehtiyoj omili); shaxsning yaxshi yashash istagidan kelib chiqib yangi joyda “ikkinchi vatan” (barqarorlik omili) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Migratsiyaning tarixiy turlari sifatida bosqinchilik, urbanizatsiya, mustamlakachilik, chiqish, qochish yoki surgun aholining asosiy harakat maqsadini ko‘rsatib bergan. Bugungi kundagi migratsiyaning rivojlanish tendentsiyasiga ikki tomondan qarash mumkin: bir tomondan, qochirish ya’ni, iqtisodiy qiyinchilik, turmush sifati va darajasi pastligi tufayli “surish” omillari, boshqa tomondan esa, chaqirish, ya’ni, mamlakatlarning “jalb qilish” omillari hayot sifatining yuqoriligi tufayli ishchi kuchiga ehtiyoj va boshqalar.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, migratsiyaning tarixiy turlari sifatida sanalgan jarayonlar tarixiy haqiqatni o‘zida aks ettiradi. Ya’ni bu yerda davlat fuqarolarning manfaatlaridan kelib chiqib emas, davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda aholining harakatlari yo‘naltirilganligini ko‘rish mumkin. Yana ham qadimiy taraqqiyot ya’ni, insoniyat mavjudligining asosiy shartlaridan biri ham u o‘zi uchun qulay sharoitga ega bo‘lgan maskan qidirib yo‘lga chiqishi va qaysidir joyga borib o‘rnashib turg‘unlashuv jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, yer yuzi xalqlarining ko‘p qismi qadimda, ovchilik va termachilik, keyinchalik esa, chorvachilikka asoslangan ko‘chmanchi hayot tarzida yashashgan, bu ham tarixan migratsiyaning uzluksiz sodir bo‘lib turganligidan dalolat beradi. Shuning uchun, bugungi kundagi hech bir xalq o‘zining toza naslining saqlab qolinganligini iddao qilib chiqa olmaydi va bu yer yuzi xalqlari o‘zaro assimilyatsiya jarayoni muttasil bo‘lib turganligidan dalolat beradi. Bu o‘z navbatida, tarixan migratsiya doimiy jarayon bo‘lganligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, migratsiyaga kishilarning oddiy mexanik ko‘chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy xayotning ko‘p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Albatta

ma’lum aholi qismining ko‘chishidan ko‘zlangan aniq maqsadning mavjudligi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarni ko‘zlaganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Bugungi kundagi migratsiyaning rivojlanish tendentsiyasiga ikki tomondan qarash mumkin: bir tomondan, qochirish ya’ni, iqtisodiy qiyinchilik, turmush sifati va darajasi pastligi tufayli “surish” omillari, boshqa tomondan esa, chaqirish, ya’ni, mamlakatlarning “jalb qilish” omillari hayot sifatining yuqoriligi tufayli ishchi kuchiga ehtiyoj va boshqalar.

Shu o‘rinda birinchi qochirish omili haqida to‘xtalib shuni aytish mumkinki, davlatlarning mehnat migratsiyasiga doir yuritayotgan hozirgi siyosati, birinchi galda, mamlakat ichida ishsizlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Negaki, iqtisodiy jihatdan qiyinchilikka uchrayotgan davlatlar fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy ta’minotini boshqa davlatlar hisobiga to‘ldirishga harakat qiladi.

Ikkinchi tomondan esa, chaqirish, ya’ni, mamlakatlarning “jalb qilish” omillari hayot sifatining yuqoriligi tufayli ishchi kuchiga ehtiyoj va boshqalar. Masalan, AQSHga kirib keluvchi immigrantlarning ham tarkibidagi qaralsa, rivojlanish darajasi past bo‘lgan davlatlar bilan birga, rivojlanayotgan davlatlar aholisini ham ko‘rish mumkin. Bundan xulosa shuki, aholi faqat qorin to‘qlash uchun boshqa davlatga ko‘chishni ixtiyor etibgina qolmasdan, hozirgi yashash sharoitini ham yaxshilash zarurati tufayli ko‘chayotganligini kuzatish mumkin.

Demak, migratsiyaga nisbatan jarayon sifatida qaralishi va bu hodisa to‘xtab qolishi mumkin emasligi, bugungi davlatlar va jamiyatlarning yashovchanligi sharti ekanligini ham ko‘rib o‘tdik. Shuningdek, bu jarayonga pozitiv qarashni shakllantirish, fuqarolarda ham bu boradagi qarashni to‘g‘ri tarbiyalash ham ayni asosiy masala ekanligini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash jarayonida ham bunga maqsadli yondashuv zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Migratsiya
2. https://zamin.uz/uz/jamiyat/21413-dunyo-demografiyasi-bizni-nimalar-kutmoqda.html
3. https://kun.uz/uz/news/2023/02/15/turkiya-hukumati-zilzila-paytida-binolarning-qulashi-sabablarini-aytdi?q=%2Fnews%2F2023%2F02%2F15%2Fturkiya-hukumati-zilzila-paytida-binolarning-qulashi-sabablarini-aytdi
4. https://t.me/burchak_uz/18097
5. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(1), 86-94.
6. Мирзалиев, У. Б. (2020). O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1№ 3).
7. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.
8. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
9. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in

Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.

10. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.

11. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.

12. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).

13. Эргашев, И., & Худайназаров, А. У. (2020). ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИ БОШҚАРУВИДА ЁШЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ МАЪНАВИЙ ОМИЛЛАРИ. Журнал Социальных Исследований, 3(5).

14. Жиянмуратова, Г. Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИ ДИНАМИКАСИ. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 3(1).

15. Хонимов, Ш. (2020). ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(9).

16. Абдуназаров, С. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(7).

17. Akramkulovich, S. N. (2020). METADOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.

18. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth. Academic research in educational sciences, (1), 152-15

19. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.

20. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.